

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, O.R.Raxmatov Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining mediasavodxonligini rivojlantirish ehtiyojlari va zarurati	8
U.R.Radjabov, K.B.Xakimdjano Maktabgacha ta'lim muassasi tarbiyalanuvchilarini harakatli o'yinlar orqali bolalar psixologiyasini va nutqini rivojlantirish uslublari.....	12
X.A.Yulbarsova Loyihaviy ta'lim - bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi sifatida	16
Sh.A.Mamajonov Oliy ta'limda ekologik tarbiya mexanizmlarini rivojlantirishning maqsad va vazifalari.....	21
B.Q.Qurbonova Ta'lim jarayonida hamkorlikka yo'naltirilgan pedagogika – shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy texnologiyalari	25
B.B.Musayev Aholi salomatligini sog'lomlashtiruvchi dasturining umumiy yo'nalishi	31
N.N.Azizov Yuqori malakali kurashchilarning musobaqaoldi texnik-taktik tayyorgarligini boshqarishning ilmiy-metodologik asoslari	35
O.Q.Xasanova Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida og'zaki xatolar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik asoslari	42
P.A.Xamrokulov, S.G.Go'furov Физическое воспитание в системе дошкольного образования	48
R.N.Nazimov O'qituvchining pedagogik texnikasi	52
X.M.Shermatova, G.A.Karaboyeva Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishda axborot texnologiyalarining o'rni	58
U.Q.Maqsudov, M.O.Yuldasheva Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish savodxonligini oshirishda o'yin va multimedia vositalaridan foydalanish metodlari	62
O.M.Erkaboyev Bolalarning harakat potentsialini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maqsadli oshirish metodologiyasi.....	66
X.M.Ismoilova Hozirgi davrda Farg'ona vodiysi oila qadriyatlariga ta'sir etuvchi destruktiv omillar	73
G.B.Karimova O'qitish jarayonida faol va interaktiv ta'limning asosiy usullaridan foydalanish hamda ularni qo'llash shakllari va maqsadlari.....	77
З.Б.Санакуллова Технология выполнения упражнений юными гимнастками с предметами	81
A.M.Nurmuhamedjanov Yoshlar musiqiy tafakkurini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	86
O.F.Qambarov Kichik maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini tabaqalashtirish asosida sog'lom turmush tarzini shakllantirish	93
I.Qirg'izov Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining Forobiy qarashlari asosida kasbiy-pedagogik mahoratini rivojlantirish metodikasi	96
I.I.Tuyichiyeva O'qituvchi faoliyatida pedagogik va kommunikativ qobiliyatlar	100



UO‘K: 528.942.004.85

**BO‘LAJAK NEMIS TILI O‘QITUVCHILARIDA OG‘ZAKI XATOLAR BILAN ISHLASH
KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI****ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ РАБОТЫ С
УСТНЫМИ ОШИБКАМИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА****PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF FORMING THE SKILLS OF WORKING WITH
VERBAL ERRORS OF FUTURE GERMAN LANGUAGE TEACHERS****Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi**

Farg‘ona davlat universiteti doktoranti pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak nemis tili o‘qituvchilarida o‘quvchilarning og‘zaki xatolari bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishning pedagogik asoslari tadqiqqa tortilgan. O‘quvchilar yo‘l qo‘ygan og‘zaki xatolarni to‘g‘rilashning o‘qituvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘quvchi, o‘qituvchi-o‘quvchi-o‘qituvchi kabi shakllari tahlil qilingan. Og‘zaki xatolarni to‘g‘rilash usullari tizimlashtirilgan.

Аннотация

В статье изучаются педагогические основы формирования у будущих учителей немецкого языка умения работать с устными ошибками учащихся. Проанализированы формы исправления речевых ошибок, допущенных учащимися, такие как учитель-ученик, ученик-ученик, учитель-ученик-учитель. Систематизированы методы исправления устных ошибок.

Abstract

In the article, the pedagogical foundations of future German language teachers' formation of the ability to work with students' verbal errors are studied. The forms of correcting verbal mistakes made by students, such as teacher-student, student-student, teacher-student-teacher, were analyzed. Methods of correcting verbal errors are systematized.

Kalit so‘zlar: nemis tili, xato, tahlil, o‘qituvchi, to‘g‘rilash, til o‘rganuvchi, og‘zaki xato, metod, kompetensiya.

Ключевые слова: немецкий язык, ошибка, анализ, учитель, коррекция, изучающий язык, , устная ошибка, метод, компетентность.

Key words: German language, error, analysis, teacher, correction, language learner, verbal mistake, method, competence.

KIRISH

Chet tillarni o‘rganish jarayonida til o‘rganuvchilar albatta og‘zaki xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Xatolar o‘rganish jarayonining tabiiy qismi hisoblanadi. Til o‘rganuvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolar to‘g‘rilanishi kerak, chunki xatolarni to‘g‘rilashsiz til o‘rganuvchilarning til bilish darajasi o‘sishi qiyin kechadi. Til o‘rganuvchi xatoga yo‘l qo‘yayotgani, uning o‘rganish jarayoniga qiziqishi borligini bildiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Og‘zaki xatolarni to‘g‘rilash dunyo olimlari tomonidan ko‘p o‘rganilgan. Ayniqsa, M.Shurman va T.Shlaklarning 2011-yil Zeitschrift für Fremdsprachenforschung jurnalida e‘lon qilingan “Hilfreich oder ohne praktischen Nutzen?–Die Forschung zur mündlichen Fehlerkorrektur im Zweit- und Fremdsprachenunterricht” nomli maqolasi diqqatga sazovar [11.43-b]. Ular o‘z tadqiqotlari orqali chet tili va ikkinchi chet tilini o‘rganishda og‘zaki xatolarni to‘g‘rilash, ularni samarali bartaraf etish masalalarini yoritishga harakat qilishgan. Ularning qayd etishlaricha, og‘zaki xatolarni chet til tadqiqotlarining obyekti sifatida qarala boshlanganiga o‘ttiz yildan oshdi [11; 12]. Olimlar og‘zaki xatolar bilan borasida olib borilgan dastlabki tadqiqot sifatida M.Longsning 1996-yildagi ishini ko‘rsatishadi [10]. Bundan tashqari R.Ellis, J.Truscott hamda L.Ortega kabi olimlarning ishlari ham og‘zaki xatolarni to‘g‘rilash borasida amaliy ahamiyat kasb etishi qayd etib o‘tiladi [5;8;9;13;14;15;16;17;18].

S.Korderning fikriga ko'ra, til o'rganish jarayonida xatolar kelib chiqishining asosan uchta sababi mavjud [19, 10-11-b]:

1. Til o'rganuvchilar yo'l qo'ygan xatolar o'qituvchiga ular nimalarni o'rganib olgani va nimalarni o'rganishda qiynalayotganlarini bilish uchun yordam beradi;

2. Xatolar til qanday o'rganilishi va buning uchun qanday strategiyalarni qo'llash kerakligini aniqlashga xizmat qiladi;

3. Xatolar til o'rganuvchilarning o'sishlari uchun ham muhim hisoblanadi.

H.Kordes esa S.Korderning fikriga qo'shimcha qilgan holda "til o'rganuvchilar xato qilish uchun, tadqiqotchilar ularni tahlil qilish uchun, o'qituvchilar esa til o'rganuvchilarining xatolarini to'g'rilash uchun bordirlar" degan fikrni ta'kidlaydi [2, 15-b.].

O'qituvchi xatolarni to'g'rilaydi, chunki har bir o'qituvchi bu orqali til o'rganuvchilariga yordam beradi yoki bu uning o'qituvchi sifatidagi vazifasi deb tushunadi. A.Koll-Shtobbening ta'kidlashicha, "...til o'rganish o'quvchilar uchun tavakkal hisoblanadi"[1, 186-187-b.]. Shu sababli o'qituvchining bu jarayondagi roli muhim, u o'z o'quvchilariga yordam beradi hamda qo'llab-quvvatlaydi. O'qituvchi tomonidan xatolardan qo'rqish hissi yo'q bo'lgan til o'rganish muhitini yaratilishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu orqali o'qituvchi til o'rganuvchilarining shu chet tilini o'rganishga tavakkal qilishlariga turtki beradi. Shu sababli ham chet til darslarida juda ko'p uchraydigan, lekin yetarli darajada e'tibor berilmaydigan xatolarni to'g'rilash jarayoniga ahamiyat qaratish masalasini dolzarb deb hisoblaymiz. Qiyinchilikni yengish, chet tildagi nutqda xato qilishdan cho'chimaslik, o'quvchi nutqining uning shaxsiy hayotiga daxldorligi, xilma-xil ish tartiblarini qo'llash (o'quvchi-o'quvchi, muallim-o'quvchi, muallim-sinf, o'quvchi-sinf va h.k.), o'yin va lisoniy musobaqalar o'tkazish kabilar faollikni kuchaytirish omillaridandir [4, 85-b.].

Chet til darslarida xatolarga diqqat qaratish muhim. Ular o'rganish jarayoning ajralmas qismi, agar o'qituvchi ham, til o'rganuvchi ham xatolarni to'g'rilash haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishsa, tilni o'rganish jarayoni osonlashishiga erishiladi. Shu sababli ushbu paragrafda og'zaki xatolar va ular bilan samarali ishlash usullari haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Og'zaki xatolarni to'g'rilash asosan ikki xil usulda amalga oshiriladi:

1. Xatoning boshqalar tomonidan to'g'rilanishi.

2. O'z xatosini o'zi to'g'rilash;

Yuqorida keltirilgan xatolarni to'g'rilash usullari o'z ost turlariga ham ega. Dastlab har ikki usul haqida batafsil to'xtalib o'tmoqchimiz.

O'z xatosini o'zi to'g'rilash albatta til o'rganuvchining o'zi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda o'qituvchi til o'rganuvchini xato qilganligi haqida ogohlantiradi va yana bir bor to'g'ri javobni topishga undaydi. *Xatoning boshqa odam tomonidan to'g'rilanishi* usulida boshqa odam nafaqat o'qituvchi balki guruhdagi boshqa til o'rganuvchilar ham bo'lishi mumkin. Quyida esa ularga batafsil to'xtalib o'tamiz.

Tashqi tomondan boshlangan tashqi to'g'rilash

Tashqi tomondan berilgan tashqi to'g'rilash deganda, xatoga yo'l qo'ygan til o'rganuvchining xatosini boshqalar bilib uni to'g'rilash jarayoni tushuniladi. Yuqorida qayd etilganidek, bu o'qituvchi ham, guruhdagi til o'rganuvchilardan biri ham bo'lishi mumkin. Bu jarayon o'qituvchi tomonidan boshlab berilishi va guruhdagi til o'rganuvchilar tomonidan davom ettirilishi mumkin. Bu o'qituvchining xatoga qanday yondashishiga bog'liq. O'qituvchi to'g'ridan-to'g'ri xatoni tuzatishi yoki guruhga "Qani kim bu gapni yaxshiroq tuzishga harakat qilib ko'radi?" kabi mazmundagi savol bilan murojaat qilishi hamda guruhdagilarni to'g'ri javobni topishga undashi mumkin. Yoki bu holat aksincha bo'lishi ham mumkin, guruhdagi til o'rganuvchilardan biri sherigining xatosini payqaydi, lekin xato o'qituvchi tomonidan to'g'rilanadi.

Xatoning o'qituvchi tomonidan to'g'rilanishi – odatda dars jarayonida xatolarni to'g'rilash huquqi o'qituvchiga tegishli bo'ladi. O'qituvchi xatolarni bevosita yoki bilvosita to'g'rilashi mumkin. Xatoni bevosita to'g'rilash jarayonida o'qituvchi til o'rganuvchi xatoga yo'l qo'yishi bilan amalga oshiriladi. Bunda o'qituvchi tomonidan to'g'ri javob, yechim qanday bo'lishi to'g'ridan-to'g'ri aytiladi. Xatoni bilvosita to'g'rilanishida esa o'qituvchi to'g'ri javobni aytmasdan, u bilan bog'liq qoidani til o'rganuvchiga eslatadi.

Lekin o'qituvchi tomonidan amalga oshirilgan bunday to'g'rilashlar til o'rganuvchining xotirasida qolishi qiyin. Shu sababli til o'rganuvchilarni o'z xatolarini o'zlari topib, to'g'rilashga undash maqsadga muvofiq. Bu orqali til o'rganuvchi qo'llayotgan konstruksiyasi haqida yana bir

bor o'ylab ko'radi va nimanidir o'rganadi. Ko'p hollarda xatoni o'qituvchi tomonidan to'g'rilanishida til o'rganuvchi o'qituvchi nimani to'g'rilaganini anglab olishi qiyin kechadi. Bu holatda til o'rganuvchi to'g'rilangan javobni qayta aytib berishi mumkin, lekin uni ongli ravishda amalga oshirmaydi. Shu sababli xatolarni bevosita to'g'rilashdan til o'rganuvchiga yechim yoki qoida ma'lum bo'lmaganida yoki to'g'ri shakl hali darsda o'rganilmaganida foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday bo'lishiga qaramay, o'qituvchi tomonidan til o'rganuvchilarni o'z xatosini o'zi tuzatishga o'rgatish muhim ekanligini ta'kidlamoqchimiz. O'qituvchilar xatoni o'qituvchi tomonidan to'g'rilanishini ma'qul ko'rishadi, sababi bu holatda o'qituvchi vaqtdan yutadi. Agar xatoni to'g'rilash imkoni til o'rganuvchilarga berilsa, ular bir qarorga kelib to'g'ri javobni aytgunlarigacha ma'lum vaqt yo'qotiladi.

Xatoning o'qituvchi tomonidan to'g'rilanishi guruhdagi boshqa til o'rganuvchi orqali ham boshlanishi mumkin. Albatta o'qituvchi har doim ham hamma xatoni anglamay qolishi mumkin. Bu holatda guruhdagi boshqa til o'rganuvchi, sherigining javobi haqiqatdan ham to'g'ri bo'lganligini so'rashi, shundan so'ng, agar javob noto'g'ri bo'lsa o'qituvchi tomonidan to'g'rilanishi mumkin.

O'qituvchi tomonidan amalga oshirilgan xatolarni bevosita to'g'rilanishi jarayonida mazmun umuman o'zgarib ham ketishi mumkin, bu holatda ko'pincha o'qituvchi til o'rganuvchi nima deyishni ko'zlaganini tushunmaganligi bilan bog'liq bo'ladi. Bu orqali o'qituvchi til o'rganuvchining o'ylagan gapidan umuman boshqa mazmundagi gapga o'tib ketadi. Shu sababli xatoni bevosita to'g'rilashdan oldin til o'rganuvchi nima demoqchiligini aniqlashtirib olish ham muhim. Ko'p hollarda o'qituvchilar o'ziga ma'qul usulda til o'rganuvchilarning xatolarini to'g'rilaydilar va bu orqali til o'rganuvchilarning yodida ayni jarayonga mos tushmaydigan, lekin grammatik jihatdan to'g'ri bo'lgan gap saqlanib qoladi. Bu esa xatolarning chet til darsi ta'siri ostida ham paydo bo'lishini ko'rsatadi. Demak, xatolarni to'g'rilash jarayonida o'qituvchidan yanada diqqatliroq bo'lish talab etilar ekan.

Guruhdagi boshqa til o'rganuvchilar tomonidan xatolarni to'g'rilanishi. Xatolar albatta guruhdagi boshqa til o'rganuvchilar tomonidan ham to'g'rilanishi mumkin. Lekin bunday xatoni to'g'rilash uchun til o'rganuvchilarda xatoni to'g'rilay olish uchun yetarli darajada bilim bo'lishi kerak. To'g'rilash guruhdagi boshqa til o'rganuvchining o'z sherigini xatosini topishi va keyin shu xatoni to'g'rilashini anglatadi. Albatta xato boshqa til o'rganuvchilar tomonidan ham to'g'rilanishi mumkin, bunda o'qituvchining savoli signal vazifasini o'tashi lozim.

Ko'p hollarda til o'rganuvchilar xatolarini o'qituvchiga qaraganda o'z sheriklari tomonidan to'g'rilanishini afzal ko'rishadi. Chunki odatda dars beriladigan guruhda tengdoshlar ta'lim olishadi, ular chet tili bilan bog'liq muammolarini o'zaro muhokama qilishlari va birgalikda yechim topishlari, bu orqali o'zlarining til borasidagi bilimlarini kengaytirishlari, yangi konstruksiyalarni o'rganishlari oson kechadi. Buning yana bir sababi til o'rganuvchilar tomonidan o'qituvchi rolining avtoritar tarzda baholanishida ham bo'lishi mumkin. Til o'rganuvchilarni guruhdagi boshqa sheriklari ham o'zlari kabi xatolarga yo'l qo'yish holatlari uchrab turishi, ularning bir xil statusga ega ekanliklari tinchlantirib turadi. K.Kleppin va F.Konigslarning izlanishlarida esa, til o'rganuvchilar ko'p hollarda xatolarining o'qituvchi tomonidan to'g'rilanishini afzal ko'rishlari haqida aytiladi [6, 76-90-b.]. Ayniqsa, katta yoshdagi til o'rganuvchilar sheriklaridan ko'ra o'qituvchining xatolarni to'g'rilashini ma'qul ko'rishadi. O'qituvchilarda esa bu holat aksincha. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, xatoni kim tomonidan to'g'rilanishini afzal ko'rilishi til o'rganuvchining yoshiga ham bog'liq bo'lar ekan.

Boshqalar tomonidan boshlangan o'z xatosini o'zi to'g'rilash

Odatda o'z xatosini o'zi to'g'rilash o'qituvchi tomonidan boshlanadi. O'z xatosini o'zi to'g'rilashni guruhdagi boshqa til o'rganuvchilar tomonidan boshlanishi deyarli ko'zga tashlanmaydi. Ammo nazariy jihatdan bunday bo'lishi ham mumkin. Xatoni to'g'rilashni boshlashdan maqsad, til o'rganuvchini to'g'ri javobni o'zi topishga undash hisoblanadi. O'z xatosini o'zi to'g'rilash o'rganish jarayoni uchun samarali bo'lib, bunda til o'rganuvchi xatosi haqida qayta o'ylab ko'radi, javobning xatoga yo'l qo'yilgan qismiga ko'proq e'tibor qaratadi hamda xatoni o'zi to'g'rilashga harakat qilib ko'radi. H.Vulfning qayd etishicha, boshqalar tomonidan boshlangan o'z xatosini o'zi to'g'rilash xatolarni to'g'rilashning eng ko'p qo'llaniladigan turi hisoblanadi [3, 5-b.]. Quyida K.Kleppin tomonidan keltirilgan o'z xatosini to'g'rilashni turli variantlariga to'xtalib o'tmoqchimiz [7, 41-b.].

Ovozni ko'tarish

O'qituvchi tomonidan til o'rganuvchi aytgan gapni xato yo'l qo'yilgan qismini baland ovozda qaytarilishi gapda xato borligiga ishora sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari o'qituvchi bunday holatda barmoqlarini qarsillatish, bosh igr'ish yoki qarsak chalish orqali ham xatoga ishora qilishi mumkin. Shunda til o'rganuvchi, qayerdadir xatoga yo'l qo'yganini tushunadi va xatosini to'g'rilashga harakat qiladi.

Metalingvistik tavsif

Metalingvistik tavsif ham til o'rganuvchini o'zi yo'l qo'yayotgan xatosiga e'tiborini jalb qilish usullaridan biri hisoblanadi. Metalingvistik tavsiflar sifatdosh, fe'l, kelishiklar hokazolarga ishora qilishdir. Agar til o'rganuvchi o'z nutqida xatoga yo'l qo'ysa, masalan "*Ich möchte ein Hund*" gapini aytsa, o'qituvchi *tushum kelishigi* so'zini aytish orqali xatoni to'g'rilashga ishora qiladi. Lekin bu usuldan o'qituvchilarning foydalanishi deyarli ko'zga tashlanmaydi.

Audiolingual usul

O'qituvchi audiolingual usuldan ham foydalanishi mumkin. Odatda bu usul grammatik tarjima metodi davrida ko'p qo'llanilgan. Bunda dastlab yangi struktura eshittiriladi va takrorlanadi. Xuddi shu holat ko'p marta takrorlanganidan keyin, qoida tushuntiriladi. Buning yordamida til o'rganuvchilar takrorlashga undaladi. Takrorlash vaqti kelganda, barmoqlarni qarsillatish mumkin. Bu usul bexaviorizm davrida xatolarni kamaytirish strategiyasi sifatida ham qo'llanilgan. Lekin bu usulning samarasi deyarli sezilarli o'zgarishlarga olib kelmagan va hozirda foydalanilmaydi.

Noverbal belgilar

Xatolarni o'zi to'g'rilashga boshlashda noverbal belgilardan ham foydalanish mumkin. Masalan, gapdagi so'z tartibida xatoga yo'l qo'yilganida qo'llar yordamida almashtirish belgisini qilish va bu orqali gapdagi so'z tartibi haqida ogohlantirish. Bosh qimirlatish orqali ham xatoga yo'l qo'yilganiga ishora qilish mumkin. Mimika va jestlar ham xatolarni to'g'rilashga xizmat qiluvchi noverbal ishoralar hisoblanadi. Grammatik xatolardan ogohlantirishda mimika va jestlardan foydalanish birmuncha qulay hisoblanadi. Lekin o'qituvchi noverbal belgilardan foydalanayotganida til o'rganuvchi bu belgilarni tushunishiga ishonchi komil bo'lishi va uning o'qituvchiga qarayotganiga e'tibor berishi kerak.

Xatoga yo'l qo'yish sabablarini bayon qilish

Agar gap interferensiya bilan bog'liq xatolar haqida ketayotgan bo'lsa, xatoga yo'l qo'yish sabablarini bayon qilish usulidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda o'qituvchidan imkon qadar qoidani yoki so'zni tushuntirish, til o'rganuvchining ona tilisi bilan qiyoslab berish talab etiladi. Agar til o'rganuvchilar xatoning kelib chiqishiga nima sabab bo'layotganini bilishsa, keyinchalik bu xatoni takrorlamasliklari oson kechadi. J.Jalolov ta'kidlab o'tganidek, o'quvchining o'zini o'zi nazorat qilish va xatolarini mustaqil bartaraf etishga o'rgatish katta ahamiyatga molik [4, 81-b].

Xatoga yo'l qo'yish sabablarini bayon qilish til o'rganuvchilarga o'zlarining shaxsiy o'rganish strategiyalarini rivojlantirishlariga yordam beradi. Bu holatda til o'rganuvchi o'z til o'rganish jarayoniga avvalgiga qaraganda ongliroq yondasha boshlaydi. Avval o'rganilgan chet tilidagi o'xshash struktura va so'zlarga urg'u berish, ularni o'xshashlik hamda farqli tomonlarini qiyoslash, til o'rganuvchilarga tanish bo'lgan o'rganish strategiyalarini yangi tilga ham joriy etishga yo'l ochadi. Bunda albatta chet til o'qituvchisining til o'rganuvchilarning ona tilisi hamda ular o'rgangan chet tillari haqida tushunchaga ega bo'lishi muhimdir. Masalan, o'zbek tilli til o'rganuvchilarga nemis tilini o'rgatishda o'zbek, rus va ba'zi hollarda ingliz tiliga qiyoslash orqali xatoga yo'l qo'yish sabablarini tushuntirish yaxshi samara beradi.

O'qituvchi til o'rganuvchilarga to'g'ri va noto'g'ri tuzilgan gaplar o'rtasidagi farqni ham tushuntirib berishi mumkin. O'qituvchi o'quvchining gapi nima uchun noto'g'ri tuzilganligi, nima uchun bu xatoga yo'l qo'ygan bo'lishi mumkinligini va uni qanday yaxshilash mumkinligini tushuntirishi maqsadga muvofiq. Shundan so'ng gapning to'g'ri va noto'g'ri varianti o'zaro taqqoslanadi. Bu usuldan grammatik va so'z mazmuni bilan bog'liq xatolarni to'g'rilashda foydalanish yaxshi samara beradi. Bunday bayon qilish orqali to'g'ri shakl til o'rganuvchilarning xotirasida yaxshiroq saqlanib qoladi.

Og'zaki xatolarni to'g'rilashning keyingi usuli *til o'rganuvchining o'zi tomonidan boshlangan o'z xatosini to'g'rilash* hisoblanadi.

Til o'rganuvchining o'zi tomonidan boshlangan o'z xatosini to'g'rilash deganda, til o'rganuvchining javob berish jarayonida xatoga yo'l qo'yishi, lekin xatosini o'sha paytning o'zida anglab, o'zi to'g'rilashi tushuniladi. Lekin bu holat uzoq o'ylanishdan keyin ham sodir bo'lishi


mumkin. Til o'rganuvchi kechikishlar bilan o'z xatosini anglaydi. O'z xatosini to'g'rilashni til o'rganuvchining o'zi tomonidan o'sha paytning o'zidayoq boshlanishi ko'p hollarda gapdagi so'z tartibi, otlarni kelishiklarda turlanishi, fe'llarni tuslanishi bilan bog'liq xatolarga yo'l qo'yilganida kuzatiladi. So'zning mazmuni bilan bog'liq xatolarni ko'pincha til o'rganuvchi javobini tugatib bo'lganidan keyin to'g'rilashi ko'zga tashlanadi.

H.Vulfning qayd etishicha, til o'rganuvchi tomonidan boshlangan o'z xatosini to'g'rilash amalga oshmay qolishi ham mumkin [3]. Chunki til o'rganuvchi xatosini to'g'rilashga urinadi, lekin buni uddalay olmaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xatolarni til o'rganuvchining o'zi tomonidan to'g'rilanishi xatolarning o'qituvchi tomonidan to'g'rilanishiga qaraganda samaraliroq natija beradi. Buning asosiy sababi, til o'rganuvchining xatoni to'g'rilashga qayta urinishi va nimanidir o'rganishi bilan bog'liq bo'lib, ko'p hollarda o'sha xato takrorlanmaydi. Bu jarayonda nafaqat bir til o'rganuvchining o'z xatosini tushunib takrorlamasligiga, balki guruhdagi boshqa til o'rganuvchilarning ham sheriklari yo'l qo'ygan xatosi va uni to'g'rilashga bo'lgan harakatiga e'tiborlarini qaratish lozim. Qolgan til o'rganuvchilar ham sheriklarining xatosidan va uni to'g'rilash jarayonidan nimadir olishi kerak. O'z xatosini o'zi to'g'rilay olishi ham til o'rganuvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini ortishiga xizmat qilishi lozim. O'qituvchidan esa xatolarni to'g'rilashdan aynan shu maqsadda foydalanish talab etiladi.

Yuqorida keltirilgan xatolarni to'g'rilash turlarini umumiy ko'rinishda quyidagicha aks ettirish mumkin:



Rasm № 1. Xatolarni to'g'rilash usullari

Bo'lajak nemis tili o'qituvchilaridan o'z o'quvchilarining xatolarini bartaraf etishda xatolarni to'g'rilash usullari bilan yaqindan tanish bo'lishlari talab etiladi. Bu ularning xatolarni bartaraf etish kompetensiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Chet til o'qituvchilari lisoniy xatolarni to'g'rilaydilar. Ammo buni qanday me'yorga asoslangan holda amalga oshiradilar, og'zaki xatolarni to'g'rilash chet tili darslarida qanday ahamiyatga ega degan savollarga javob berish lozim. Umuman olganda o'qituvchilar tomonidan chet til darslaridagi xatolar o'quvchilarga yordam berish uchun to'g'rilanadi. Lekin xatolarni og'zaki to'g'rilashning boshqa sabablari ham bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda o'qituvchilar xatolarni to'g'rilashni o'zlarining vazifalari deb hisoblashadi. Bundan tashqari xatolarning to'g'rilanishi til o'rganuvchilar tomonidan o'qituvchining jiddiy qabul qilinishiga sabab bo'ladi. Ba'zan xatolarni to'g'rilash sinf yoki guruhdagi tartibni saqlab turishga ham xizmat qiladi.

Darsda o'qituvchini asabiylashtirgan yoki jahlini chiqargan til o'rganuvchilarning xatolari ko'p to'g'rilanishi va bu orqali o'qituvchi xonada kimga bo'ysunish kerak ekanligini ko'rsatib qo'ymoqchi ekanligini tajribalarimizda kuzatganmiz.

Yuqorida keltirilgan sabablardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, o'qituvchining xatolarni to'g'rilash borasida o'zini qanday tutishi kerakligi haqida ko'rsatmalarni ishlab chiqish va bo'lajak nemis tili o'qituvchilarini ular bilan tanishtirish muhim.

Chunki xatolarni to'g'rilash bilan ishlash o'qituvchilarga ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi. Xatolarni og'zaki to'g'rilashning turli yo'llari mavjud. Ular dars va darsdagi o'zaro munosabatlarga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

O'qituvchilarning fikriga ko'ra ham bu omil darsga eng katta ta'sir etuvchi omil deb qaraladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, o'qituvchilarning xatolarni og'zaki to'g'rilashda o'z usullariga ega bo'lishlari va buni ongli ravishda amalga oshirishlari til o'rganuvchilarning chet tilni yanada samaraliroq o'rganishlariga olib kelar ekan.

XULOSA

Shuni xulosa sifatida ta'kidlash kerakki, o'qituvchilar o'zlarining xatolarini to'g'rilash usullari, xatolarini to'g'rilashga bo'lgan munosabatlari haqida o'ylab ko'rishlari lozim. Xatolarni to'g'rilashga ongli yondashuv chet til darslarining samarali kechishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.Koll-Stobbe. „Falsch oder anders? Überlegungen zu Fehlerbewertungen im Fremdsprachenunterricht aus der Sicht der Sprachgebrauchlinguistik.“ In Henrici et al. (Hrsg.), Fremdsprachen Lehren und Lernen. Themenschwerpunkt: Fehler-analyse und Fehlerkorrektur. 1993. S.175-188. S.186-187
2. H. Kordes. „Aus Fehlern lernen.“ In: Henrici et al. (Hrsg.), Fremdsprachen Lehren und Lernen. Themenschwerpunkt: Fehleranalyse und Fehlerkorrektur. S.15-34. 15.S.
3. H.Wulf. Communicative teacher talk: Vorschläge zu einer effektiven Unterrichtssprache. – Hueber, 2001. S.5.
4. J.Jalolov. Chet til o'qitish metodikasi. T.: -O'qituvchi, 2012. 85-b.
5. J.Truscott. What's Wrong with Oral Grammar Correction. The Canadian Modern Language Review 55, 1999. 437-456-p.;
6. K.Kleppin, F.Königs. „Grundelemente der mündlichen Fehlerkorrektur – Lernerurteile im (interkulturellen) Vergleich.“ In: Henrici et al. (Hrsg.), Fremdsprachen Lehren und Lernen. Themenschwerpunkt: Fehleranalyse und Fehlerkorrektur. 1993. S.76-90.
7. K.Kleppin. *Fehler und Fehlerkorrektur*. Fernstudieneinheit 19. München. Langenscheidt. 1998. S. 41
8. L.Ortega. Language Acquisition Research for Language Teaching: Apply even if with Caution! Keynote address, präsentiert auf der Konferenz der Österreichischen Gesellschaft für Sprachendidaktik, Innsbruck, 23.-25. September 2010.
9. L.Ortega. Understanding Second Language Acquisition. London: Hodder Education. 2009.
10. M.Long. The Role of the Linguistic Environment in Second Language Acquisition. In: Ritchie, William & Bhatia. Handbook of Second Language Acquisition. San Diego u.a.: Academic Press, 1996. –C. 413-468.
11. M.Schoormann, T.Schlak. Hilfreich oder ohne praktischen Nutzen?–Die Forschung zur mündlichen Fehlerkorrektur im Zweit-und Fremdsprachenunterricht //Zeitschrift für Fremdsprachenforschung. – 2011. – T. 22. – №. 1. – C. 43-84.;
12. M.Schoormann, T.Schlak. Zur Komplexität mündlicher Fehlerkorrekturen //Beiträge zur Fremdsprachenvermittlung. – 2011. – T. 51. – C. 77-105.
13. R.Ellis, H.Basturkmen, Sh.Loewen. Learner Uptake in Communicative ESL Lessons. Language Learning 51, 2001. 281-318-p.;
14. R.Ellis, Y.Sheen. Reexamining the Role of Recasts in Second Language Acquisition. Studies in Second Language Acquisition 28, 2006. 575-600-p.;
15. R.Ellis. Corrective Feedback and Teacher Development. In: L2 Journal 1. 2009. 3-18-p. [Online: <http://escholarship.org/uc/item/2504d6w3>. 02.07.2011].;
16. R.Ellis. Epilogue: A Framework for Investigating Oral and Written Corrective Feedback. Studies in Second Language Acquisition 32, 2010. 335-349-p.;
17. R.Ellis. Sh.Loewen, R.Erlam, Rosemary. Implicit an Explicit Corrective Feedback and the Acquisition of L2 Grammar. Studies in Second Language Acquisition 28, 2006. 339-368-p.
18. R.Ellis. The Differential Effects of Corrective Feedback on Two Grammatical Structures. In: Mackey, Alison (Hrsg.) 2007. 339-360 p.; R.Ellis. The Study of Second Language Acquisition (2. Aufl.). Oxford: Oxford University Press. 2008.;
19. S.Corder. Error analysis and Interlanguage. Oxford. 1981. 10-11-p.